

Hisobga olish uskunalari qiyoslovdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari faqat DXM yoki YaIDXP orqali amalga oshiriladi



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ



**Ҳисоблагичлар фақат
DXM ёки my.gov.uz
орқали қиёсловдан
ўтказилади**

@huquqiyaxborot

Hisobga olish uskunalari qiyoslovdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari faqat DXM yoki YaIDXP orqali amalga oshiriladi

Bunda, hisobga olish uskunalari qiyoslash davriyligi:

yuridik shaxslar uchun – 4 yil;

jismoniy shaxslar uchun – 8 yilni tashkil etadi.

Hisoblagichni qiyoslashdan o'tkazish davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun quyidagicha yig'im undiriladi:

jismoniy shaxslardan (maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasidan foydalanuvchi jismoniy shaxslardan tashqari) BHMning 20 foizi (60 ming so'm);

hududiy elektr tarmoqlari korxonasidan (maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasidan foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun) BHMning 15 foizi (45 ming so'm);

yuridik shaxslardan BHMning 1,5 baravari (450 ming so'm) miqdorida.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga belgilangan yig'imning 50 foizi miqdorida chegirma qo'llaniladi.

Abdumanof Umridinov - So'x tuman Adliya bo'limi Davlat

xizmatlari markazi sho'ba mudiri